

“TASDIQLAYMAN”

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini
oshirish, gender tenglik
va oila masalalari bo'yicha
respublika komissiyasi raisi

 **T. Narbayeva**

2025-yil 26 may

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi majlisining 14-sonli BAYONNOMASI

2025-yil 26 may

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: – T. Narbayeva – Respublika komissiyasi raisi

Ishtirok etuvchilar: – Respublika komissiyasi a'zolari (ro'yxat bo'yicha)

K U N T A R T I B I :

**Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish
uslubiyatining yangi tahrirdagi loyihasi haqida.**

(T.Narbayeva, B.Xasanov, R.Turdiboyeva, G.Rashidova, T.Narbayeva)

Xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning siyosiy, ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

“Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi va “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, ular uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, davlat organlari va tashkilotlar faoliyatida tenglik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza tizimli ravishda takomillashtirilmoqda.

Xususan, davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida genderga oid auditni o'tkazishning huquqiy asoslari yaratildi.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida”gi (O'RQ–809-son) Qonun bilan “genderga oid audit” tushunchasi qonunchilikka kiritildi.

Shu kunga qadar O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan bir qator tashkilot va muassasalarda genderga oid audit ishlari olib borildi.

Biroq o'tkazilgan tahlillar mavjud uslubiyat zamonaviy talablar va hayotdagi real muammolarga to'liq javob bermasligini ko'rsatdi. Audit jarayonidagi yondashuvlarni yanada takomillashtirish, uni institutsional darajada ishonchli va tizimli mexanizmga aylantirish zarurati yuzaga keldi.

Shundan kelib chiqib, genderga oid auditni yanada samarali tashkil etish va natijadorligini oshirish maqsadida yangi tahrirdagi "Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish uslubiyati" (*keyingi o'rinlarda Uslubiyat deb yuritiladi*) loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur Uslubiyat mas'ul vazirlik, idoralar hamda Xalqaro mehnat tashkiloti va "BMT-ayollar" tuzilmasi kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida takomillashtirildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarni inobatga olib, Respublika komissiyasi majlisi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish uslubiyati **1-ilovaga** muvofiq;

Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish bo'yicha uch yillik reja **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika komissiyasi majlisining 2023-yil 21-iyuldagi 6-sonli bayonnomasining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Genderga oid auditni o'tkazish uslubiyati o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi:

bir oy muddatda mas'ul vazirlik-idoralar vakillaridan iborat Genderga oid audit o'tkazishga ko'maklashuvchi guruh tarkibini shakllantirsin va tasdiqlash uchun Respublika komissiyasiga kiritсин;

ikki oy muddatda davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish uchun O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi tarmoq kasaba uyushmalari vakillari hamda uning ijtimoiy sherik boshqaruv organlari vakillaridan iborat auditorlar guruhini shakllantirsin;

sohada zarur bilim va ish tajribasiga ega mutaxassislar hamda ekspertlarni jalb etgan holda **reja asosida** genderga oid auditni o'tkazuvchi auditorlar guruhi a'zolari uchun Uslubiyat mazmun-mohiyati haqida **o'quv-seminarlar** tashkil etsin;

uch oy muddatda davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik nazorati doirasida genderga oid audit o'tkazishda faol qatnashgan mas'ullarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqsin;

genderga oid audit sifatli o'tkazilishini tashkil etsin hamda uning natijalariga doir axborot va takliflar audit yakunlanganidan keyin **o'n ish kuni ichida** Respublika komissiyasiga kiritilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan taqdim etilgan genderga oid audit natijalariga doir axborot va takliflarni tahlil qilsin hamda tizimli masalalarni Respublika komissiyasi yig'ilishi muhokamasiga kiritib borsin.

5. Genderga oid audit o'tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlari:

tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashi bilan birgalikda Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan uch yillik rejaga muvofiq quyi tuzilmalarda genderga oid auditni o'tkazish rejasini tasdiqlasin;

Uslubiyat asosida auditni o'tkazish uchun auditorlar guruhlariga zarur shart-sharoitlarni yaratsin hamda quyi tuzilmalarda ushbu auditning o'tkazilishiga amaliy yordam ko'rsatib borsin;

auditorlar guruhining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash yuzasidan tavsiyalarini ko'rib chiqsin va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amaliyotga tatbiq etish choralari ko'rsin.

6. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga genderga oid audit o'tkazish jarayonlarini yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish Respublika komissiyasi raisining o'rinbosari Q.Rafiqov zimmasiga yuklansin.

Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish USLUBIYATI

I bob. Umumiy qoidalar

1. Genderga oid auditni o'tkazish uslubiyati (bundan buyon matnda Uslubiyat deb yuritiladi) "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Uslubiyat davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik nazorati doirasida genderga oid auditni o'tkazish tartibini belgilaydi.

3. Genderga oid audit o'tkazish muddati davlat organlari va tashkilotlarining xodimlar soni hamda ish hajmi xususiyatlarini inobatga olgan holda, biroq uch oydan kam bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

4. Ushbu Uslubiyatda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

gender siyosati – jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlarga erishish uchun ishlab chiqiladigan va qo'llaniladigan chora-tadbirlar hamda vositalar majmuasi;

genderga oid audit – davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi holatini, shuningdek genderga doir kompleks yondashuvni o'rganish va baholash;

genderga doir kompleks yondashuv – davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'z faoliyatini, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishni xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tashkil etish;

genderga oid auditorlar guruhi – genderga oid auditni o'tkazish uchun xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlarni ta'minlash borasida zarur bilimga va ish tajribasiga ega bo'lgan kasaba uyushmasi hamda ish beruvchi mutaxassislaridan iborat guruh;

genderga oid auditni o'tkazishga ko'maklashuvchi guruh – genderga oid auditni o'tkazish jarayonida auditorlarga uslubiy yordam ko'rsatuvchi soha ekspertlaridan iborat guruh.

5. Genderga oid auditni o'tkazish uch yillik rejasi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda Respublika komissiyasi deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi.

Tarmoqlar bo'yicha genderga oid auditni o'tkazish rejasi tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashi va uning ijtimoiy sherik boshqaruv organlari tomonidan uch yillik rejasiga muvofiq tasdiqlanadi.

6. Genderga oid audit O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi tarmoq kasaba uyushmalari vakillari hamda ish beruvchi vakillari bilan hamkorlikda davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik nazorati doirasida o'tkaziladi.

7. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi davlat organi va tashkilotida genderga oid audit o'tkazish jarayonlarini muvofiqlashtiradi, monitoring qiladi va natijalarini umumlashtirib, axborot hamda tahliliy ma'lumotlar tayyorlaydi.

8. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi huzurida mas'ul vazirlik-idoralar vakillaridan iborat genderga oid audit o'tkazishga ko'maklashuvchi guruh (keyingi o'rinlarda Ko'maklashuvchi guruh deb yuritiladi) tuziladi. Ko'maklashuvchi guruhga vakillari kiritiladigan vazirlik-idoralarning namunaviy ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanadi.

Guruh tarkibi Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

II. Genderga oid auditning maqsadi va vazifalari

9. Genderga oid auditning asosiy maqsadi – davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi holatini o'rganish hamda gender tamoyillarini samarali qo'llash bo'yicha ko'maklashishdan iborat.

10. Quyidagilar genderga oid auditning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbatini o'rganish;

davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatini genderga doir kompleks yondashuv asosida tashkil etganligi holatini o'rganish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi qonunchilikning ijro etilish holatini baholash;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

II bob. Genderga oid auditni o'tkazish uchun auditorlar guruhini shakllantirish tartibi

11. Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish uchun O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi tarmoq kasaba uyushmalari vakillari hamda uning ijtimoiy sherik boshqaruv organlari vakillaridan iborat auditorlar guruhi tuziladi.

12. Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish uchun auditorlar guruhi quyidagi tartibda tuziladi:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tashkilotlarida – genderga oid auditni o'tkazish uchun tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashi va uning ijtimoiy sherik boshqaruv organlari vakillaridan iborat tarkibda;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hududiy bo'linmalari va hududiy tashkilotlarda – genderga oid auditni o'tkazish uchun O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy Kengashi, uning ijtimoiy sherik yuqori turuvchi boshqaruv organi hamda mahalliy boshqaruv organlari vakillaridan iborat tarkibda;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tuman (shahar) bo'linmalari va tuman (shahar) tashkilotlarida – genderga oid auditni o'tkazish uchun tarmoq kasaba uyushmalarining tuman (shahar) bo'linmalari va uning ijtimoiy sherik yuqori turuvchi mahalliy hamda tuman (shahar) boshqaruv organlari vakillaridan iborat tarkibda.

Korxona, tashkilot va muassasalarda – yuqori turuvchi tarmoq kasaba uyushmalarining tuman (shahar) bo'linmalari vakili, uning ijtimoiy sherik tuman (shahar) boshqaruv organlari hamda ish beruvchi vakilidan iborat tarkibda.

13. Auditorlar guruhining kasaba uyushmasidan vakili Kasaba uyushmasi tegishli organi qarori hamda ish beruvchi vakili ish beruvchining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

III bob. Genderga oid audit o'tkazish jarayoni ishtirokchilarining vazifalari

14. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining vazifalari:

ijro etilishi holatini o'rganish nazarda tutilayotgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik normalarining tahlilini o'tkazadi;

davlat organlari va tashkilotlaridan, mansabdor shaxslardan hujjatlar, ekspertlik va boshqa xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rab oladi;

davlat organlari va tashkilotlarining gender tenglikni ta'minlash bo'yicha taklif hamda tavsiyalarini o'rganadi;

gender auditorlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv-kurslarini tashkil etadi;

davlat organlari va tashkilotlarda genderga oid auditni o'tkazish jarayonlarini muvofiqlashtiradi, monitoring qiladi va natijalarini umumlashtirib, axborot hamda tahliliy ma'lumotlar tayyorlaydi;

qonunchilikning ijro etilishi amaliyotini o'rganish borasida zarur bo'lgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

15. Ko'maklashuvchi guruh vazifalari:

auditorlar guruhiga genderga oid auditni o'tkazish jarayonida zarur bo'lgan metodologik va texnik yordamni ko'rsatadi;

tegishli ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va auditorlar guruhiga ma'lumotlar bazasini taqdim etish uchun ko'mak beradi;

auditorlar guruhi a'zolari uchun gender tengligi va audit texnikalari bo'yicha ta'lim va malaka oshirish seminarlarini tashkil etadi;

audit jarayonida zaruratga ko'ra jamoatchilik faollari va boshqa tashqi manbalar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va ularni jalb qilishda ko'maklashadi;

audit natijalari bo'yicha hisobot va tavsiyalar ishlab chiqishda auditorlar guruhiga yordam beradi;

audit jarayonida nazorat va kuzatuvni ta'minlash, jarayonning barcha bosqichlarida sifat va samaradorlikni kuzatadi;

yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni audit jarayoniga joriy etishda tavsiyalar beradi.

16. Auditorlar guruhining vazifalari:

davlat organlari va tashkilotlarda genderga oid auditni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi;

audit o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rish borasida ish beruvchi va xodimlarni xabardor qiladi;

zarur hujjatlar, materiallar hamda statistik ma'lumotlarni yig'adi;

genderga oid siyosat bilan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash borasidagi kompleks yondashuv, qabul qilingan strategiya (rejalar), joriy etilgan va kelajakda joriy qilinadigan tizimlar, dasturlarga oid hujjatlar bilan xodimlarni tanishtiradi hamda brifing o'tkazadi.

xodimlar bilan individual suhbatlar va seminarlar o'tkazadi;

ish beruvchi bilan birgalikda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

17. Ijtimoiy sherik boshqaruv organlarining (mahalliy hamda tuman (shahar) boshqaruv organlari, ish beruvchi) vazifalari:

genderga oid auditni o'tkazish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratadi;

auditorlar guruhi tomonidan talab qilingan zarur hujjatlarni taqdim etadi;

xodimlar bilan yakka suhbatlar olib borilishiga imkoniyat beradi;

auditorlar guruhi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

auditorlar guruhining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash yuzasidan tavsiyalarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amaliyotga tatbiq etadi.

IV bob. Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish

Genderga oid auditni o'tkazish bosqichlari:

18. Genderga oid auditni o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich – hujjatlarni tahlil qilish;

2-bosqich – xodimlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish;

3-bosqich – xodimlar bilan individual suhbat o'tkazish;

4-bosqich – xodimlar uchun interaktiv seminarlar tashkil etish;

5-bosqich – yakuniy hisobot tayyorlash, davlat organlari va tashkilotlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha strategiya va takliflar ishlab chiqish.

19. Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazishga doir namunaviy savolnoma ushbu Uslubiyatning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlanadi. Auditorlar guruhlaridan tomonidan mazkur savolnomaga tashkilot xususiyatidan kelib chiqib, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Genderga oid audit o'tkazish jarayoni:

20. Genderga oid auditning birinchi bosqichida genderga oid audit o'tkazilayotgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari va tashkilotning tarkibiy tuzilmasi tanlab olinadi. Auditorlar guruhi tomonidan mazkur Uslubiyatning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan hujjatlar tahlil etiladi. Tashkilot xususiyatidan kelib chiqib, qo'shimcha hujjatlar ham tahlil qilinishi mumkin.

Ushbu hujjatlarni tahlil etishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga taalluqli quyidagi masalalar o'rganiladi:

normativ-huquqiy hujjatlarning gender ekspertizadan o'tkazilganligi;

kadrlar siyosatini olib borishda genderga doir kompleks yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanganligi;

ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, kadrlar qo'nimsizligi va uning sabablari, kadrlar zaxirasiga doir hujjatlar;

davlat xizmatining tegishli lavozimlarida ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar (funktsiyalari va roli) sonining nisbati;

jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan qoidalar mavjud emasligi;

xotin-qizlar va erkaklarga teng qiymatli mehnat uchun teng haq belgilanganligi;

o'quv tadbirlari ayollar va erkaklarning turli ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi;

kadrlarning kasbiy tayyorgarligi (mashg'ulot va treninglarda ayol va erkaklarning teng ishtiroki) tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rilganligi;

xotin-qizlar va erkaklar ish hamda oilaviy majburiyatlarni birga bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratilganligi;

jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarining qonuniy hal etilganligi;

davlat organlarining rahbarlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashlarining tuzilganligi;

tashkilotda tazyiq va zo'rvonlikka yo'l qo'ymaslik muhitini yaratilganligi (tashkilotning ichki hujjatlarida tazyiq va zo'rvonlik, shahvoniy shilqimlikni oldini olishga oid qoidalar mavjudligi), xotin-qizlar va erkaklar o'zlarini xavfsiz his etishi, xizmat vazifasini bajarishda hech qanday tazyiqqa uchramasligi, shuningdek, bunday holatlar uchun shikoyat mexanizmi mavjudligi;

tashkilot rahbariyatining gender tenglikni ta'minlash bo'yicha tashabbuslarga egaligi, xodimlar uchun gender tenglik va etika bo'yicha treninglar o'tkazilganligi, xotin-qizlar rahbarligini rag'batlantirishga qaratilgan ichki dasturlarning mavjudligi.

21. Genderga oid auditda oxirgi ikki yil davomida qabul qilingan hujjatlar tahlil qilinishi lozim.

22. Genderga oid auditning uchinchi bosqichida xodimlar o'rtasida mazkur uslubiyatning 2-ilovasidagi savolnoma asosida anonim so'rovnoma o'tkaziladi. So'rovnoma natijalaridan genderga oid audit xulosalarini tayyorlashda foydalaniladi.

23. Genderga oid auditning uchinchi bosqichida xodimlar bilan individual suhbatlar o'tkaziladi. Auditorlar suhbat yakuni bo'yicha qisqa hisobot tayyorlaydi.

Suhbat jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

xodimlarning genderga oid qonunchilik va gender siyosatdan xabardorligi;

jamoada erkaklar va ayollar soni;

normativ-huquqiy hujjatlarda gender sezuvchanlik holati;

qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollar teng ishtirok etishi;

strategik rejalashtirishda jins hisobga olinganligi;

jinsiy kamsitishga duch kelingani, jinsi sababli karerada o'sishga to'sqinliklar;

gender yondashuvni joriy etish uchun moliyaviy mablag'lar ajratilgani;

tashkilot moliyaviy xarajatlarini tayyorlashda erkaklar va xotin-qizlarning ishtiroki;

ish joyida erkaklar va xotin-qizlar uchun bir xil sharoit hamda imkoniyat yaratilganligi;

vazifalar ijrosida mas'uliyatning teng taqsimlanganligi;

erkaklar va xotin-qizlar uchun teng qiymatdagi ish uchun teng haq to'lashning belgilanganligi;

ish joyida zo'rvonlik va shilqimlikka duch kelinganligi;

shikoyat va arizalar berishning rasmiy yoki norasmiy tartib-taomillari mavjudligi.

24. To'rtinchi bosqichda xodimlar uchun interaktiv seminarlar tashkil etiladi. Auditorlar guruhi tomonidan seminar dasturi ishlab chiqiladi va seminarda audit natijalari muhokama qilinadi.

Seminar davomida xodimlarga gender tenglik sohasiga oid tushunchalar, tahliliy ma'lumotlar hamda gender tenglikni ta'minlashning mazmun-mohiyati bo'yicha batafsil tushuntirishlar beriladi.

Mazkur seminarlar orqali yakuniy hisobot uchun xodimlardan qo'shimcha axborot to'planadi.

25. Beshinchi bosqichda genderga oid auditning hujjatlar tahlili natijalari, o'tkazilgan so'rov, individual suhbatlar hamda seminarlar yakunidan kelib chiqib genderga oid audit hisoboti tayyorlanadi.

Hisobotda genderga oid audit jarayonida olib borilgan o'rganishlar umumlashtirilgan ma'lumotlar, tahlil natijalari va xulosalar, genderga oid audit natijasida aniqlangan muammolar, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va yanada ilgari surish bo'yicha tavsiyalar hamda ilg'or tajriba namunalari aks ettiriladi.

Hisobot ijtimoiy sherik boshqaruv organlariga (mahalliy hamda tuman (shahar) boshqaruv organlari, ish beruvchi) hamda yuqori turuvchi audit guruhiga taqdim qilinadi.

Mazkur hisobot asosida ijtimoiy sherik boshqaruv organlari (mahalliy hamda tuman (shahar) boshqaruv organlari, ish beruvchi) xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

V bob. Genderga oid auditning natijalarini ko'rib chiqish

26. Genderga oid audit natijalariga doir axborot va takliflar genderga oid audit o'tkazilganidan keyin o'n ish kunidan kechiktirilmay quyidagi tartibda:

korxona, tashkilot va muassasalarda o'tkazilgan genderga oid audit natijalari – yuqori turuvchi ijtimoiy sherik tuman (shahar) boshqaruv organiga;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuman (shahar) bo'linmalari va tashkilotlarida o'tkazilgan genderga oid audit natijalari – yuqori turuvchi hududiy bo'linma va tashkilotiga;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy bo'linmalari va tashkilotlarida o'tkazilgan genderga oid audit natijalari – yuqori turuvchi ijtimoiy sherik mahalliy boshqaruv organiga;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tashkilotlarida o'tkazilgan genderga oid audit natijalari – O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasiga.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi genderga oid audit natijalarini ko'rib chiqib, umumlashtirib, axborot, tahliliy ma'lumotlar va takliflar tayyorlaydi hamda respublika darajasida hal etilishi lozim bo'lgan eng dolzarb tizimli masalalarni respublika komissiyasiga kiritib boradi.

27. Respublika komissiyasi genderga oid audit natijalariga doir axborotni va takliflarni bir oy ichida ko'rib chiqadi.

28. Respublika komissiyasi genderga oid audit natijalariga doir axborotni va takliflarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda genderga doir kompleks

yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi.

29. Genderga oid audit natijalariga doir axborotni va takliflarni ko'rib chiqilayotganda Respublika komissiyasi majlisiga manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari, ilmiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, olimlar, mutaxassislar va ekspertlar jalb etilishi mumkin.

30. Genderga oid audit natijalariga doir axborotni va takliflarni Respublika komissiyasining majlisida auditorlar guruhi va tegishli o'rganish ishlari olib borilgan davlat organlari va tashkilotlari rahbari hozir bo'lishi shart.

31. Genderga oid audit natijalari to'g'risidagi axborot O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

32. Respublika komissiyasining genderga oid audit natijalariga doir axborot va takliflar bo'yicha qabul qilingan qarori tegishli davlat organlari va tashkilotlariga u qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida yuboriladi. Respublika komissiyasining qarori ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin.

VI bob. Yakuniy qoidalar

33. Uslubiyatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, uni o'z kuchini yo'qotgan deb topish Respublika komissiyasi qarori asosida amalga oshiriladi.

**Genderga oid auditni o'tkazishga ko'maklashuvchi guruh tarkibiga
vakillari kiritiladigan vazirlik-idoralarning namunaviy**

RO'YXATI

1. Oliy sudi
2. Bosh prokuratura
3. Adliya vazirligi
4. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
7. Sog'liqni saqlash vazirligi
8. Madaniyat vazirligi
9. Qishloq xo'jaligi vazirligi
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
11. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi
12. Ijtimoiy himoya milliy agentligi
13. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
14. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
15. Yoshlar ishlari agentligi
16. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi

NAMUNAVIY SAVOLNOMA

1. Gender siyosatini boshqarish va javobgarlik

1. Tashkilotingizda gender tengligini ta'minlash bo'yicha siyosat mavjudmi? Agar shunday bo'lsa, uning asosiy maqsadlari va amalga oshirish mexanizmlari qanday?
2. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha rahbariyat kimni mas'ul etib belgilagan?
3. Tashkilotda gender tengligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qanday?
4. Xodimlar gender siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga qanday jalb qilinadi?
5. Gender tengligi siyosati bo'yicha hisobotlar tayyorlanadimi va ular jamoatchilikka oshkor qilinadimi?
6. Tashkilotda gender tengligini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlar qanday nazorat qilinadi?
7. Hamkor tashkilotlarni tanlashda gender tengligini ta'minlash tajribasi hisobga olinadimi?
8. Gender tengligini rag'batlantirishga ajratilgan byudjet qanday boshqariladi?

2. Kadrlar siyosati va mehnat sharoitlari

9. Tashkilotda jami xodimlar o'rtasidagi gender balansi qanday?
10. Ishga qabul qilishda shaffoflik va gender sezuvchanlik ta'minlanganmi?
11. Har ikki jins uchun kasbiy rivojlanish va lavozimda o'sish imkoniyatlari qanday ta'minlanadi?
12. Ayollarni yuqori lavozimlarga tayinlashda qanday maxsus dasturlar mavjud?
13. Tashkilotda ish haqi va rag'batlantirish adolatli taqsimlanadimi?
14. Oilaviy majburiyatlar va "ish-oila" muvozanatini ta'minlash siyosati mavjudmi?
15. Gender ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvchan ish sharoitlari taklif qilinadimi?
16. Tashkilotda lavozimda ko'tarilishda jins bo'yicha cheklovlar mavjudmi?
17. Xodimlarni kasbiy rivojlantirishga oid maxsus dasturlar bormi?
18. Xodimlarning ish faoliyati qanday baholanadi va mukofotlanadi?

3. Korporativ madaniyat va inklyuzivlik

19. Tashkilotda inklyuzivlik va o'zaro hurmatning umumiy darajasi qanday?
20. Shilqimlik, xarassment yoki jinsiy zo'ravonlik holatlariga qanday choralar ko'riladi?
21. Hujjatlar va axborot materiallari gender sezuvchan vositalardan foydalanishni ta'minlaydimi?
22. Tashkilotda gender tengligini oshirish bo'yicha qo'shimcha dasturlar yoki loyihalar bormi?
23. Tashkilotda kamsitishlarni bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqilganmi?
24. Ayollar va erkaklar qaror qabul qilishda bir xil darajada ishtirok etadilarmi?
25. Tashkilotda moliyaviy va kadrlar siyosatiga oid qarorlar qanday qabul qilinadi?

4. Axborot, monitoring va hisobot

26. Tashkilotda gender tengligini ta'minlash bo'yicha hisobot berish va monitoring jarayoni qanday yo'lga qo'yilgan?
27. Hisobotlar jins bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladimi?
28. Gender siyosati bo'yicha natijalar qanday ko'rsatkichlar asosida baholanadi?
29. Axborot yig'ish va tarqatish uchun maxsus xodim yoki guruh belgilanganmi?
30. Gender siyosati bo'yicha ma'lumotlar umumiy xodimlar uchun ochiq va kirish mumkinmi?
31. Hisobotlar doimiy yangilanadimi va jamoatchilikka taqdim etiladimi?
32. Axborot tarqatish jarayonida ommaviy axborot vositalari yoki hamkorlar ishtirok etadimi?

**Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid audit o'tkazish
jarayonida tahlil etiladigan hujjatlar
RO'YXATI**

tashkilotning ta'sis hujjatlari va nizomi;

tarmoq va hududiy kelishuvlar;

jamoat shartnomalari;

buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar;

ichki mehnat tartib qoidalari;

xodimlarning lavozim yo'riqnomalari;

xodimlarning xizmat safariga oid hujjatlar;

dastur va loyihalar;

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash
masalalari bo'yicha maslahat kengashlari hujjatlari;

uchrashuvlar, majlislar, konferensiyalar, o'quv tadbirlari to'g'risidagi
ma'lumotlar;

xodimlarning malakasini oshirishga oid ma'lumotlar;

axborot xizmatining (mavjud bo'lsa) faoliyatini ochib beruvchi ma'lumotlar;

veb-sayti va ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi havolalar;

axborot byulletenlari (bosma va elektron shaklda);

davlat organi yoki tashkilotining faoliyatini ochib beruvchi boshqa hujjatlar.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi majlisining 2025-yil "26" maydagi 14-sonli bayonnomasiga 2-ilova

Davlat organlari va tashkilotlarida genderga oid auditni o'tkazish bo'yicha uch yillik

REJA

T/r	Davlat organlari va tashkilotlari	Audit o'tkazish muddati	Audit natijalariga doir axborot va takliflarni tayyorlash muddatlari	Axborot va takliflarni Respublika komissiyasiga kiritish muddati
1.	Ichki ishlar vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2025-yil III chorak	2025-yil 10-oktabr	2025-yil 15-oktabr
2.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2025-yil IV chorak	2026-yil 10-yanvar	2026-yil 15-yanvar
3.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2026-yil I chorak	2026-yil 10-aprel	2026-yil 15-aprel
4.	Mudofaa vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2026-yil II chorak	2026-yil 10-iyul	2026-yil 15-iyul

5.	Favqulodda vaziyatlar vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2026-yil III chorak	2026-yil 10-oktabr	2026-yil 15-oktabr
6.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2026-yil IV chorak	2027-yil 10-yanvar	2027-yil 15-yanvar
7.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2027-yil I chorak	2027-yil 10-aprel	2027-yil 15-aprel
8.	Qishloq xo'jaligi vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2027-yil II chorak	2027-yil 10-iyul	2027-yil 15-iyul
9.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari va quyi tuzilmalari	2027-yil III chorak	2027-yil 10-oktabr	2027-yil 15-oktabr
10.	Tashqi ishlar vazirligi, uning tuzilmaviy tashkilotlari	2027-yil IV chorak	2028-yil 10-yanvar	2028-yil 15-yanvar